

**MAKTAB KUTUBXONASI**

---

**ERKIN VOHIDOV**

**MENING YULDUZIM**

She'rlar

G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti  
Toshkent — 2000

O'z2  
B 83

Tahrir hay'ati:  
Abdulla Oripov, Jo'ra Yo'ldoshev,  
Yo'ldosh Saidjonov, Gulandon Alimova,  
Karim Normatov, Nazira Jo'rayeva, Jabbor Razzoqov

Vohidov Erkin.

Mening yulduzim: She'rlar // Tahrir hay'ati: A.Oripov, J. Yo'ldoshev, Y. Saidjonov va boshq. /.— T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 2000—40 b.— (Maktab kutubxonasi).

Yirik jamoat va davlat arbobi, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov omadi chopgan, baxti kulgan ijodkor. Shoirning baxti shundaki, u xalqining diliga yo'l topib muhabbatini qozongan. Uning o'ziga xos chiroyli, o'ynoqi satrlari, bu satrlar zamiridagi ulkan falsafiy mushohadalar o'quvchini teranlikka chorlaydi, fikrlashga o'rgatadi.

Qo'lingizdagi to'plam sevimli shoirimizning turli yillarda yozilgan she'rlaridan jamlangan.

O'z2

B  $\frac{4803620202 - 1}{M352(04) - 2000}$  rejaga qo'shimcha - 99

ISBN 5-635-01817-3

© Erkin Vohidov, G'afur  
G'ulom nomidagi Adabiyot va  
san'at nashriyoti, 2000 y.

★ ★ ★

Men jilg'aman,  
Daryo bo'lib to'lgim keladi.  
Ona yurtim,  
Senga o'g'lon bo'lgim keladi.  
Bugun senga  
Faqatgina she'r bag'ishladim,  
Kerak bo'lsa  
Jonni fido qilgim keladi.

### ARMON

Kecha kerak bo'lding,  
Bolalik chog'im!  
Senga qo'l uzatdim,  
Yo'q,  
Yetolmadim,  
Oshkora g'irromlik qildi  
O'rtog'im,  
Men: bor o'ynamayman,  
Deb ketolmadim.

### ONA TILIM O'LMAYDI

Notiq dedi:  
"Taqdir shul:  
Bu jahoniy iroda,  
Tillar yo'qolur butkul,  
Bir til qolur dunyoda".  
"Ey voiz, pastga tushgin,  
Bu gap chiqdi qayerdan!"

Navoiy bilan Pushkin  
Turib keldi qabrdan.  
Kim dargʻazab,  
Kim hayron,  
Chiqib keldilar qator:  
Dante,  
Shiller  
va Bayron,  
Firdavsiy,  
Balzak,  
Tagor.  
“Va'zingni qoʻy, birodar,  
Sen aytganing boʻlmaydi”.  
Barcha dedi barobar:  
“Ona tilim oʻlmaydi”.  
— Hey, bu qanday aqida!  
Qoʻlida tabarruk jom:  
Forsiy tili haqida  
Ruboiy aytdi Hayyom.  
Ehtirosli, otashdil  
Beranje soʻrdi nolon:  
— Nahotki farangi til  
Yoʻqolgusi bir zamon!  
Neruda, Lorca turdi  
Servantesning yoniga:  
— Kim qasd etib tigʻ urdi  
Ona tilim joniga!

Fuzuliy yondi:

— Ozar —

Tili guldek soʻlmaydi.  
Barcha dedi barobar:  
“Ona tilim oʻlmaydi”.  
Kamalakdek rango-rang  
Boʻlsin deb sanʼat, tillar,  
Asrlarcha qildik jang,

Armon qildik ming yillar.  
Beqadr bo'lsa nahot  
Tillardagi tarovat!  
Yo'qoldi bu kun, hayhot.  
Qabrlarda halovat.  
"Faust" yondi gurillab,  
"Xamsa" o'tga tutashdi.  
Bir sado jahon bo'ylab  
Taraldi, tog'lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,  
Sira ado bo'lmaydi.  
Olam aytar:  
Hech qachon  
Ona tilim o'lmaydi!

## **TOG' BILAN SUHBAT**

Deyman: Bulutlarga chulg'angan, oppoq  
Tumanli boshingga quyosh to'kar nur.  
Kimsanki, qarshimda yuksalib mag'rur,  
Uzoq-uzoqlarga boqasan, o'rtoq?

Aks sado der:— Tog'!..

Deyman: Qorlaringga qo'rganman qadam,  
Ulkan qoyalaring quchib o'tganman.  
Ustingdan necha bor uchib o'tganman.  
Kimmanki, shunchalar yuksak irodam?

Aks sado:— Odam!..

Deyman: Quvonchingga tor kelur jahon,  
Tongdan boshlanarkan bag'ringda gurung.  
Nimadir shunchalar faxring, g'ururing,  
Ayt, nelar qilibdi qo'yningda makon?

Aks sado der:— Qon...

Deyman: Fanlar sari shahdam yo'l oldim,  
Porloq istiqbolim ko'z tutar menga.

Ishon, bir kun yana kelaman senga.  
Ammo kim bo'lib — shu fikru xayolim.

Aks sado:— Olim...

Tilagim shu, o'rtoq, haqlisan butkul,  
Ilmlar bor qarshimda hali,  
Javohirlar to'la bag'ring ochgali  
Quchog'ingga yana kelaman, kutgil!

Aks sado der:— Kel!

## **CHANOQLARGA QO'NGAN YULDUZLAR**

Tong yellari bilan o'ynashib,  
Ko'k shamlari so'nib qoldilar.  
Yo'q, paxtazor vodiya tushib,  
Chanoqlarga qo'nib oldilar.

To'lib oltin chanoqlariga  
Mayin jilva qilib kuldilar.  
Terimchi qiz quchoqlariga  
Oppoq paxta bo'lib to'ldilar.

Yana qancha chevar qo'llardan  
Pardoz olib bo'ldilar ko'klam.  
Mehnat teri bilan yo'g'rilgan  
Yulduzlarga kiyindi o'lkam...

Haqli, agar o'z kasbi bilan  
G'urur qilsa paxtazor ahli.  
Oq oltin ham shuncha sevinchdan  
Chanog'iga sig'masa haqli.

## **BULOQ**

Buloq ona yer siynasidan  
She'r singari qaynab oqadi.

Suvning kumush oinasidan  
Mehrimg bo'lib quyosh boqadi.

To'yib ichdim, suv bilan go'yo  
Dilga singdi yurt muhabbati.  
Tashnaligim qondi-yu, ammo  
Yana ortdi qalb harorati.

## ONA TUPROQ

Nega inson yerni qutlug' der,  
Tuproqni ham sanar muqaddas?  
Yo'q, mo'tabar emas asli yer,  
Tuproq o'zi tabarruk emas.

Dastlab o'sha yer uzra odam  
To'kkanida halol manglay ter,  
Gavhar undi ona tuproqdan,  
Qutlug' bo'ldi muazzam bu yer.

O'z muborak tuprog'in inson  
Yot nazardan asrab har nafas,  
Uni quchib fido etdi jon,  
Qoni bilan qildi muqaddas.

Yo'q, mo'tabar emas asli yer,  
Qutlug' emas tuproq hech qachon.  
Muborakdir inson to'kkan ter,  
Mo'tabardir qutlug' toza qon.

★ ★ ★

Kun tog' o'rkachiga tirmashar asta,  
Novvot qoyalarda yaltiraydi qor.  
Yuksak cho'qqilardan boshlangan bahor  
Shalolalar bilan intilar pastga.

To'shab sohillarga jilvakor gilam,  
Daryo bo'lib oqar Amu, Siriga.  
Bahor o'lkasining qon tomiriga  
Sharqirab kiradi fusunkor ko'klam.

## QIZALOQ

Qo'g'irchoqdan bir zum nari ketmasdan  
Erkalar, bag'riga bosar qizaloq.  
Hayot nima, hali idrok etmasdan,  
Go'dakligiga ham aqli yetmasdan,  
Ona bo'laman deb o'sar qizaloq.  
Taajjub, kim solmish uning

ko'ngliga,

Kirmoq qayda hali hayot yo'liga,  
Ona allasiga qonmasdan hali,  
Ertaga shu uyga beka bo'lgali  
Supurgi tutadi jajji qo'liga.

Halitdan onalik mehr-shafqatin  
Dilingga soldingmi, erka qizaloq?  
Totib ko'rmay hayot bolu zaxmatin,  
Mushfiq onalikning bor

mashaqqatin

Bo'yingga oldingmi, erka qizaloq?  
Gulzor yashagandek g'uncha qatida,  
Tomchida quyoshning jamolin ko'rdim.  
O'ylasam o'y bitmas hayot haqida,  
Shu jajji qizaloq tabiatida  
Tabiatning buyuk kamolin ko'rdim.

## CHUMOLI

G'ayrat kamarini beliga bog'lab,  
O'zidan kattaroq cho'pni ortmog'lab,  
Manzilga tez yetmoq yolg'iz xayoli —



So‘qmoq yo‘ldan borar  
Chumoli.

Atrofiga boqmas, ishlar uzzukun,  
Ko‘pning xirmoniga qo‘shmoq uchun  
don...

Yo‘q,  
Odam ajdodi bo‘lmagan maymun,  
Chumolidan tarqalgan inson.

## MENING YULDUZIM

Yosh ko‘nglimda orzularim mo‘l,  
Quyosh erir yurak taftimga.  
Men osmonga uzatganda qo‘l,  
Sayyoralar qo‘nar kaftimga.

Tafakkurning po‘lat qushida  
Ko‘z-ko‘z etib bu yoshlik ko‘rkin,  
Cheksiz fazo — nur og‘ushida  
Yiroqlarga uchaman bir kun.

Parvonadek o‘ynab, parpirab,  
Atrofimni o‘rar yulduzlar.  
Hayrat ichra yonib, yarqirab  
Asta mendan so‘rar yulduzlar:  
“Qanday yorug‘ yulduzsan, ajab,  
Qanday porloq sayyoradirsan?  
Yoki biror turkumdan ajrab  
Biz yoqlarda overadirsan?”

Nechun kirding sho‘x davramizga  
O‘tdek yonib hatto kunduzlar?..”  
Shunda deyman:  
Kimligim sizga  
Bayon etay, tinglang, yulduzlar.

Tafakkurim — sinmas qanotim,  
E'tiqodim — nur va oftob,  
Men insonman, mening hayotim  
Tarixlarda buyuk bir kitob.

Men insonman, qalbimda otash,  
Quyoshdan toj, oydan taxt qurdim.  
Men insonman, ko'hna, jafokash  
Tuproq'imda mangu baxt qurdim.

Yiroqlarda, moviy ufqda,  
Borlig'imni band etib manim,  
Porlab turar dilbar bir nuqta,  
O'sha yulduz — mening Vatanim.

Qayda parvoz etmayin o'zim,  
Yodi bilan bo'lurman xurram,  
O'sha mening tole yulduzim,  
O'sha mening muqaddas kurram...

## **XORAZM QOVUNI**

Dasturxonda Xorazmning  
Qirqmasidan bir tilim,  
Yulduzli ko'k sahnidagi  
Hilolaga o'xshaydi.  
Bu qirqmalar bizga atab  
Sharbat to'la limmo-lim —  
Muqaddas yer tutgan oltin —  
Piyolaga o'xshaydi.

Ne piyola, shu zaminim  
Qalbi deyman har birin,  
Ona yerning tomiriga  
Bandi payvand etilgan.  
Saxovatli Amudaryo  
Suvlaridan simirib,  
Bobodehqon qo'llarida  
Oro topgan, yetilgan.

Ta'riflamay mazasini,—  
Totib ko'ring siz bir bor,  
Hazoraspning boli kabi  
Labingizda erigay.  
Qirqma agar bo'lsa arzir  
Toleidan minnatdor,  
Unga Vatan nasib bo'lmish  
Amudaryo yeriday.

Har kun tongda olisdagi  
Do'stlar uchun armug'on —  
Xorazmdan po'lat qushda  
Parvoz etar qovunlar.  
Balki uzoq qutbda ham  
Yozilganda dasturxon,  
Ko'hna diyor dovrug'ini  
Ovoz etar qovunlar.

Shu o'lkaning farzandiman,  
Faxrlansam arziydi,  
Qirqmasiga bol tomizgan  
Dehqon bilan barobar...  
Bu she'r asli qovun so'ygan  
Bog'bon otam qarziydi,  
"Ma'qul" desa, boshim bo'lur  
Osmon bilan barobar.

## OYGA

— Osmon qizi suluv oydirman,  
Ko'k sahnida oltin yoydirman.  
Tunlar fonus tutib qo'linga  
Termulaman sening yo'lingga.  
Menga kelib yetarmisan deb,  
Yerga olib ketarmisan deb.  
— Tun qo'ynida porlagan oysan,

Meni imlab chorlagan oysan.  
Senga borib yetganim bo'lsin.  
Yerga olib ketganim bo'lsin.  
Lekin bunda bor bir parivash  
Qarashidan dillarda otash.  
Yuzi uning mohi tobondir,  
Ko'zi uning ofati jondir.  
U qarshingda ko'rsatsa chiroy,  
Ko'kka qaytib ketmaysanmi, oy?

### OTAM YO'LIDAN

“Qosh-ko'zlaring otangga o'xshar”,  
Deyishadi bilganlar doim.  
So'ng xo'rsinib, qo'shib qo'yishar:  
“O'xshamasin umring, iloyim”.

Otam tutgan mash'alni ushlab,  
O'sha yo'ldan boraman men ham.  
Qani endi otamdek yashab,  
To so'nggi dam  
                    unga o'xshasam.

### SADOQAT

Keksa qarag'ayning  
Ildizin ochib,  
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.  
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,  
Sira qo'zg'almasdi  
Ungan yeridan...  
Nihoyat, gurs etib yerga quladi,  
Butab, so'ng ko'tarib ketdilar,  
                                    biroq —  
U o'z panjasida olib jo'nadi  
Yashagan yeridan  
Bir siqim tuproq.

# INSONIYAT TARIXI

(Sharq afsonasi)

Soylar kelur kumush tog'lardan,  
Gul bo'ylari — chaman, bog'lardan.  
Yer ko'ksidan oqar buloqlar,  
El naqlidan chiqar saboqlar.  
She'r quyilib yurakdan kelur,  
Ertak ezgu tilakdan kelur...

## 1

Juda qadim zamonda,  
Qobuliston tomonda  
Bir podsho o'tgan ekan  
Davron surib jahonda.  
Butun umrin kechirib  
Kayf bilan, safo bilan,  
Ishi bo'lmagan ekan  
“O'tkinchi” dunyo bilan.  
Yillar o'tib nihoyat  
Yoshi yetgach bir joyga,  
Barcha ulamo ahlin  
Chaqiribdi saroyga.  
Debdi: Olamga kelib  
Olam nedir, bilmadim,  
Odam bo'lib yashadim,  
Odam nedir, bilmadim.  
Qirq yil podsholik qilib  
Umrim o'tdi g'aflatda.  
Qolganini ilmga  
Sarf qilurman albatta.  
Shuning uchun farmonim  
Barcha bilimni to'plab,  
Odam ahli yaratgan  
Barcha ilmni to'plab,

Insoniyat tarixin  
Jam qilib kitob yozing,  
Yozganda ham batafsil  
Va lekin shitob yozing.

2

Sohibqiron podshoning  
Farmonin bajo etib,  
Qirq faslda qirq olim  
Qirq tuya kitob bitib.  
Karvon bilan podshoning  
Saroyiga eltmishlar.  
Ta'zim bilan keltirib  
Shohga taqdim etmishlar.  
Demishlar, qullaringiz  
Yuragining qoni bu,  
Insoniyat tarixin  
Eng qisqa bayoni bu.  
Hayrat ichra debdi shoh:  
Ko'p yozibsiz bunchalar.  
Insoniyat tarixi  
Uzunmidi shunchalar?  
Kimga darkor buncha gap.  
Sanjob qiling, ulamo,  
Ko'pi bilan bir tuya  
Kitob qiling, ulamo.  
Yana ulug' podshoning  
Farmonin bajo etib,  
Insoniyat tarixin  
Qirq bor muxtasar bitib,  
Qirq donishmand saf chekib  
Saroy tomon yurmishlar.  
Podshoning qarshisida  
Ta'zim qilib turmishlar.  
Olimlarga debdi shoh:

Rahmat sizga, ulamo,  
Barchasini o'qishga  
Umrin yetmaydi ammo.  
Shuning uchun, azizlar,  
Tafsilotni kam qiling.  
Bor ilmni yig'ingu  
Bir kitobga jam qiling.

#### 4

Qaytib yana qirq olim  
Qirq faslcha o'ltirmish.  
Qirq tuyalik kitobni  
Bir kitobga keltirmish.  
Ular yana saf chekib  
Yo'l olganda shoh tomon,  
Shoh o'lim to'shagida  
Yotar ekan bu zamon.  
Kitobni ko'rib debdi:  
Rahmat sizga, ulamo.  
Bir kitobni o'qish ham  
Endi menga muammo.  
Olimlarga boqibdi  
Podsho ma'yus ko'z bilan:  
"Mazmunin aytib bering  
Ikki og'iz so'z bilan.  
Eshitib o'lar bo'lsam  
Qolmas edi armonim".  
Olimlar donishmandi  
Shunda debdi: Xoqonim,  
Odamlar tug'iladi,  
G'am chekadi, o'ladi.  
Insoniyat tarixin  
Mazmuni shu bo'ladi.

Shundan buyon o'tmishdir  
 Qancha-qancha asrlar.  
 Qancha-qancha avlodlar,  
 Qancha-qancha nasllar.  
 Dunyoga ne olimlar,  
 Ne fozillar kelmabdi.  
 Hech kim bu haqiqatni  
 O'zgartira bilmabdi.  
 Zamon-zamonlar o'tib,  
 Bizning zamon keldi-yu,  
 Olamga quyosh bo'lib,  
 Istiqlolim kuldi-yu,  
 Qadimdan qolgan bu gap  
 Afsona bo'lib qoldi.  
 G'am-anduh odamlarga  
 Begona bo'lib qoldi.  
 Odamzod tarixida  
 Ortga qaytish bo'lmaydi.  
 Odamlar tug'iladi,  
 Kurashadi, o'lmaydi.  
 Har bir inson yo'lchidir  
 Porloq asr yo'lida.  
 Haqiqat mash'ali bor  
 Odamzodning qo'lida.

## SO'NGAN YULDUZLAR

Koinot qa'ridan  
 Million yil yurib,  
 Bukun derazamga  
 Qo'ngan yulduzlar!  
 Ming yillar ilgari  
 Taratgan nurin,  
 Ming yillar ilgari  
 So'ngan yulduzlar!



Kim aytar sizlarni  
Umri bitgan deb,  
Hamon ko'k sahnida  
Porlab turibsiz.  
Jozibalar bilan  
Ko'zlarni tortib,  
Imlab, o'zingizga  
Chorlab turibsiz.  
Sizga termilurman  
Kechalar bedor,  
Ajib qismatingiz  
O'ylab qolurman.  
Necha asrlarga  
Umri poyidor  
Buyuk ustozlarim  
Yodga olurman.  
Ular ham siz kabi  
Yongan bir zamon.  
Yonib ado bo'lgan  
Sizlardek,  
                        ammo  
Avlodlar yo'lini  
Yoritar hamon  
Ular qachonlardir  
Taratgan ziyo.

★ ★ ★

Bahor.  
Barqut kiyib bezandi bog'lar,  
Sahrolar ko'ksiga taqdi qizg'aldoq.  
Quyosh etagiga oq bulut bog'lab,  
O'rik shoxlarida qovurdi bodroq.  
Yellar olib qochdi qishning xobini,  
Barglar chapak chalib, uyg'ondi shodon.

Butoqlarga qo‘nib, gul kitobini     ~ - ~  
Varaqlashga tushdi bulbul — g‘azalxon...

Bugun koinotda ezgu bir tashvish,  
G‘uncha gul bo‘lay deb ko‘zin ochadi.  
Musicha oldidan bir dona cho‘pni  
Chumchuq uyasiga olib qochadi.

Xaydalgan daladan bir xas ortmoqlab —  
Chumoli yugurar — u ham tirik jon.  
Shoshilib chopadi tabib irmoqlar,  
Yerning tomiriga quymoq uchun qon...

Ona tuproq esa kuz tashvishida,  
Yuksak xirmonlarga siynasi yuklik.  
Uning sokingina tin olishida  
Bordir onalarga xos bir buyuklik.

### UKAMNING “JANGI”

Ukam minib “saman ot”ini,  
“Qilich” ushlab chiqipti jangga,  
Beshta dushman samolyotini  
Yiqitdim, deb maqtandi menga.  
Avvaliga kuldim rosa ham,  
Hazildir deb ukam so‘zlari.  
So‘ng hovliga chiqib qarasam,  
Yotar edi besh o‘lik ari.

### OLMA

Meva berdi yetilib bu yil  
Men bog‘imga o‘tqazgan nihol.  
Mevalarki, cho‘g‘day qip-qizil,  
Husni yoqut, shirinlikda bol.

Lablaridan tomizib sharbat,  
Ol, ye, deydi, armonda qolma!

Lekin shunga hayronman faqat,  
Nega uni deydilar “olma”?

Olma eksa bog‘iga har kim,  
Mehmoniga ol, ye, demasmi?  
“Olma” mening mehmondo‘st  
xalqim —

Odatiga yot so‘z emasmi?

Meva berdi yetilib bu yil  
Men ardoqlab o‘stirgan nihol.  
Olmalarki, shafaqday qizil,  
Lekin nomi olma emas, ol!

## **YANGI YIL ARCHASIGA**

Buncha ham chiroylisan,  
Yam-yashilsan har qachon.  
Yangi yilning ko‘rkisan  
Sevimlisan, archajon.

Qish boboning uyida  
Aziz mehmon — ko‘klamsan.  
Bukun uning to‘yida  
Ayniqsa soz — ko‘rkamsan.

Ko‘ylagingga juda ko‘p  
Zar tugmalar taqilgan,  
Shoxlaringda qizil, ko‘k...  
Lampochkalar yoqilgan.

Bo‘yim yetmas shoxingga  
Lekin, ey, archajonim,  
Tabelimda bor senga  
Atab tizgan marjonim.

Senga deb tizgan marjon  
A‘lo baholarimdir.

Kel, taqib qo'yay, archam,     ?     -  
Shoxlaringni egib tur.

## NUTQ HAQIDA

Har so'zida "bu", "anu",  
"Haligi", "so'ng", "anaqa".  
"Bu-bu", deydi — nima bu.  
"Unaqa"si — qanaqa?

Tiliga kelib qolgan  
So'zdan qayta olmasa,  
"Bu" qo'shmasdan savolga  
Javob ayta olmasa.

Gohi qovushmay so'zi,  
Gapidan to'xtab qolsa.  
Yaxshi bilsa ham o'zi,  
Zo'rg'agina "3" olsa.

O'zingiz o'ylab ko'ring,  
Nima bu, qanaqasi?  
Qachon qolar O'tkirning  
"Nima", "bu", "anaqasi"?

Odatlanganman deding,  
To'g'ri, hamma gap shunda.  
Lekin, axir, o'z tiling  
O'zingga bo'ysunsin-da!

To'g'ri, aniq gap tuzib  
Javob bergin so'roqqa.  
Xizmat qilsin har so'zing  
Fikringni to'latmoqqa.

Mazmun nomli mo'ljalga  
So'z — otilgan o'q bo'lsin.

Nishonga tegmay qolgan  
Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.

Do'stim O'tkirjon, buni  
Yodingda tut har doim,  
Otashin notig'ini  
Minbarlar kutar doim.

## CHEVAR QIZ

Jajji Lola paxta terdi,  
Endi demang u go'dak.  
Bir hovuchmas, bir do'ppimas,  
Terdi rosa bir etak.

Torozibon amakisi  
Olar ekan paxtani,  
Chevar qiz deb, shirin qiz deb,  
Asal qiz deb maqtadi.

Jajji Lola uyga qaytar,  
Yengil uchar qadamlar.  
Nega, qancha terding, qiz, deb  
So'ramaydi odamlar?

Ko'zlariga qarab borar  
O'tgan-ketgan hammaning.  
Hech kim so'rmas, nima dedi  
Toroziyon amaking?

Ariqchadan yuzin yuvdi,  
Sochlarini taradi.  
So'ngra xurmat taxtasiga  
Sekin borib qaradi.

Nomlari bor Gulsum opa,  
Nuri, Xayri xolaning.

Hamma boru, nimagadir,     . . .  
Ismi yo'qdir Lolaning.

Avval bir oz o'ksidi u,  
Keyin esa o'yladi:  
Mayli, bir kun uning nomi  
Shu qatorda bo'ladi.

Hozir xurmat taxtasida  
Mayli, nomin ko'rmasin.  
Bugun qancha terding qiz, deb,  
Mayli, hech kim so'rmasin.

Baribir, u paxta terar,  
Chunki bilar, bu kerak.  
Terar har kun bir do'ppimas,  
Bir kuchoqmas, o'n etak.

Lolaxonni gazetaga  
Yozmasa ham bo'ladi.  
U chevar qiz, u shirin qiz,  
Buni hamma biladi.

## **KUNLAR SEKIN O'TADI**

So'raydi mendan ukam,  
Aka, kitob olib ber.  
So'zin qaytarmay men ham,  
Olib berdim alifbe...

Bukun tayyorlik ko'rar  
Ukam katta bayramga.  
Goh maktab vaqtin so'rar,  
Goh tayinlar ayamga:

— O'sha kun uxlab qolib  
Maktabdan kech qolmay-a,  
Ertalab tura solib,  
Meni uyg'oting, aya.

Sevinch sig'mas ichiga,  
O'quvchi bo'lar ukam.  
Uning bu sevinchiga  
Sherik bo'laman men ham.

Xitoyi qog'oz o'rar  
Ukam kitob, daftarga.  
Go'yo hozirlik ko'rar  
Juda uzoq safarga.

U maktab orzusida  
O'tkazadi tunlarni.  
Hattoki uyqusida  
Sanab chiqar kunlarni.

Zo'r quvonch bilan ukam  
Sentyabrni kutadi.  
Kutgan sari kunlar ham,  
Qarang, sekin o'tadi.

## SHARQ ERTAGI

Tun.  
G'arib kulbada  
G'amgin tebranar g'am,  
Ko'zlarini yummaydi go'dak.  
— Nima deysan, qo'zim,  
Nima deysan, erkam?  
— Ona, menga so'ylab ber ertak.

Ertak, dostonlarga  
Qancha boy bu olam.  
Qanchalar ko'p Sharqda afsona!  
Aytgan bilan bitmas —  
Ming bir kechalar kam,  
Qay birini so'ylasin ona?!  
Yo Bahrom ertagi,

Yoinki "Chor darvesh"—  
Ozodbaxtning qissasini?  
Yoki Aloviddin  
Va yo Xusrav Parvez,  
Yo Jamila erk sasinimi?..

— Uxla, jonim, erkam,  
Uxla, ko'zim nuri.  
Qo'zichog'im, ko'zlaringni yum.  
Men ertak so'ylayin.  
Shirin tushlar ko'rib,  
Sen dilbandim, orom ol bir zum.

"Uzoq-uzoqlarda  
Ko'k dengizlar uzra  
Tomchilardan o'q qilar bulut.  
Dahshat bilan kelib  
Tog' ustiga, so'ngra  
Qoyalarga do'q qilar bulut.

Oq soch cho'qqilarning  
Yoqasidan tutib,  
Chaqmoq bilan urib o'tadi.  
Tog'lar bosh egmagach,  
G'azab bilan bulut  
Qoyalarni o'qqa tutadi.

Taslim bo'l, der —  
Qo'lga qilich olib,  
Taslim bo'l, der ko'tarib suron...  
Bulutning ketidan  
Ortiq dahshat solib,  
Hushtak chalib keladi bo'ron.

Deydi: "Men borliqni  
Tilka-tilka qilay,  
Qora ko'lka solay jahonga"...  
Ammo cho'qqilar tik,



Boqar ishonch bilan  
Kelajakka,  
Quyoshga,  
Tongga...

Bir nafas jim qoldi  
Ona nedir o‘ylab.  
— So‘ng ne bo‘ldi, so‘yla, onajon?  
Sharq ertagin so‘ylab,  
Ona ko‘z oldida  
Ertagi Sharq bo‘ldi namoyon.

“Mana quyosh chiqdi,  
Olam nurgà to‘lib,  
Bulut uzoqlarga yo‘qoldi.  
Etaklari uning  
Pora-pora bo‘lib  
Qoyalarda chuvalib qoldi”...

Uxla, jonim erkam,  
Uxla, ko‘zim nuri.  
Qo‘zichog‘im, ko‘zlaringni yum,  
Borliq jimjit. Go‘dak —  
Shirin tushlar ko‘rib  
Uyqusida qilar tabassum.

### **OYGA UCHSAK...**

— Oyga uchsak, Xoljinni ham  
Olamizmi?  
— Hamma uchsa, axir oshnam,  
Qolamizmi?

— Arg‘imchoqdan qo‘rqding, Xoljon,  
Ko‘rmaysanmi!  
Uchar bo‘lsak Marsga tomon,  
Qo‘rqmaysanmi?

— Do‘stlar sizni hech uyatga...  
Qo‘yarmidim?!  
Anvar o‘zi qo‘rqitmasa,  
Qo‘rqarmidim?!

## **DARAXTLAR SUHBATI**

### **Q a r a g ‘ a y**

Bo‘yin cho‘zib  
Qarag‘ay  
Yon-atrofga  
Qaragay,  
Der u:  
Barcha daraxtdan  
Baland akang —  
Qarag‘ay.

### **T e r a k**

Men terakman,  
Terakman.  
Men hammaga  
Kerakman.  
Osmon mening  
Yelkamda.  
Men olamga  
Tirgakman.

### **M a j n u n t o l**

Boshim egik  
Majnunhol,  
Majnuntolman,  
Majnuntol.  
Dam olsangiz  
Soyamda,

Men sizlardan  
Mamnun tol.

### Archa

Men archaman,  
Archaman.  
Men xursandman  
Barchadan.  
Atrofinda  
Aylanib  
Hech charchamang,  
Charchamang!

### Olm a

Men sizlarning  
Olmangiz,  
Xomligimda  
Olmangiz,  
Nortojiga  
O'xshab so'ng  
Voy qornim, deb  
Qolmangiz!

### O'rik

Qantak o'rik  
Otim bor,  
Xo'p mazali  
Totim bor.  
Mag'izimga berkitgan  
Qantim bor,  
Novvotim bor.

### Shaftoli

Sariq, oq shaftoliman,  
Zarg'aldoq

Shaftoliman,  
Maqtanib o'ltirmayman,  
Manandoq  
Shaftoliman.

### Yong' oq

Miya kabi  
Shaklim bor,  
Boshim to'la  
Aqlim bor.  
Meni yegan  
Donishmand  
Bo'lur degan  
Naqlim bor.

### Nashvati

Meni derlar  
Nashvati,  
Sharbatlarning  
Sharbati,  
Mazalarning  
Mazasi,  
Lazzatlarning  
Lazzati.

### Gilos

Men gilosman,  
Quloq sol,  
Rangim olu  
Totim bol,  
Topsang qo'shalog'imni  
Qulog'ingga  
Taqib ol.

## BIR YOLG'ONDAN QIRQ YOLG'ON

Kaminai kamtarin —  
Falonchiyev Falonchi.  
Men bir o'zim rostgo'yman,  
Qolgan hamma — yolg'onchi.

Yoshimni so'rasangiz,  
Yuz oylik chaqaloqman.  
Qotmadan kelgan daroz,  
Pakana baqaloqman.

Xush ko'rganim muzqaymoq,  
Hammomga tushib yeyman.  
Ustiga murch sepib,  
Sho'r bodring qo'shib yeyman.

Dimlab yesang — soz uzum,  
Xom yemakka sholg'omdir.  
Teskarisin aytsalar,  
Ishonmanglar, yolg'ondir.

Yana bir suyganim — ov,  
Amakim bilan birga  
Har yakshanba chiqamiz  
Baliq oviga qirga.

Qo'shtig'li miltiq bilan  
Sazanlarni otamiz.  
Tunab qolsak, laylakning  
Uyasida yotamiz.

Derlar: o'g'lon yoshidan,  
Menga haqiqat doya.  
Umrinni bir boshidan  
Qilay sizga hikoya.

Kelishim bo'lganda shart  
Men kamina olamga,  
Onamning vaqti bo'lmay  
Yalinibdi xolamga.

Xolam buvinga aytib,  
Buvim yangamga aytib,  
Yangam ammamga aytib,  
Ammam hammaga aytib,

Hammaning vaqti bo'lmay,  
O'rtada chiqib janjal,  
Omadim kelmasa sal —  
Qolar edim tug'ilmay.

Otam sho'rlik ayrilib  
Cho'ntakdagi boridan,  
Meni sotib olibdi  
Chorshanba bozoridan.

Xola, xolingiz qalay?  
Alam qilsin, ammayoy!  
Tug'masangiz, tug'ilmay  
Qolarmidi Jumavoy?

Bilib qo'ysin elu yurt,  
Men dunyoga kelgan kun  
O'ttiz birinchi fevral,  
Soat ikki kechqurun.

Beshikda yotganimda  
Bir voqea yuz bergan.  
Aytib beray,  
Jumavoy  
Rost aytishga so'z bergan.

So'rg'ichim so'rib yotsam,  
Eshikni ochib to'g'ri

Men yotgan uyga kirdi  
Qora barzangi o'g'ri.

Taxtlangan ko'rpalarni  
Bir-bir olib tashladi.  
Bisot sandiqni ochib,  
Shoshmay tita boshladi.

Sho'rlikning xabari yo'q  
Qarab turgan kishidan,  
Men kuzatib turibman  
Govrapesh tirqishidan.

Qulay fursat kelishin  
Mo'ljalayman uzoqdan.  
Asta-sekin qo'limni  
Bo'shataman qo'lbog'dan.

Sandiqni titib bo'lib  
Kelgach beshik qoshiga.  
Sumak bilan tushirdim  
O'g'rining qoq boshiga.

Barzangi gurs yiqildi,  
So'ng turib qochib qoldi.  
Shoshganidan eshik ham,  
Sandiq ham ochiq qoldi.

— Ey, nomard,— deb  
qichqirdim,—  
Qochsang urib shataloq.  
Eshikni yopib ket-da,  
Shamollaydi chaqaloq...

Bu birinchi hikoyam,  
Qurboningiz bo'layin.  
Sizni bir bor aldasam,  
Til tortmayin o'layin.

So'zga bering e'tibor,  
"Bir bor" dedim, "ming  
bor"mas  
Meni aqli butunlar  
Yolg'onchiga chiqarmas.

Ichim to'la hikoya,  
Qirqtasini aytaman.  
Dam olinglar, xozircha  
So'zimni to'xtataman.

### SHUM BOLA

Shundoq dedi, qulluq qilib,  
Gapni qo'yib joyiga  
Yangi zamon Shum bolasi  
Yangi zamon Boyiga:

"Qoshingizga yana keldim,  
Quloq soling, Boy ota,  
Sidqidildan xizmat qilay,  
Ishga oling, Boy ota.

Fazilatim ko'pdir, yana  
Aybimni ham aytganman.  
Lekin endi yangi zamon  
Men yolg'ondan qaytganman.

Chunki endi yolg'onni hech  
Aybgina deb bo'lmaydi.  
Aldaganni balo urmas,  
Aldangan ham o'lmaydi.

Innaykeyin demay turing,  
Quloq soling, Boy ota.  
Sidqidildan xizmat etay,  
Ishga oling, Boy ota.



O'n kishilik mehnat qilib,  
Parcha nonga to'yaman.  
Bir aybim bor, faqat ba'zan...  
Rost gapirib qo'yaman.

Boy otaning jahli chiqdi,  
Dedi, ko'nglim zormidi?  
Yolg'oningga chidab edim,  
Rost gaping ham bormidi?

Yo'qol, seni ishga olsam  
Xonavayron bo'laman.  
Yolg'oningdan omon qoldim,  
Rost gapingdan o'laman!

G'azab bilan hassasini  
Qo'lga oldi Boy ota.  
Yangi zamon Shum bolasin  
Quvib soldi Boy ota.

## **QUMURSQALAR JANGI**

Bir tup olma uzra kecha  
Juda katta jang bo'ldi,  
Boshlar ketdi necha-necha,  
Necha oyoq lang bo'ldi.

Hasharotlar urushgani  
Dahshat ekan,  
Qaradim.  
Oxir bitta qumursqani  
Ushlab olib so'radim:  
So'yla,  
Nechun bu mojaro?  
Nimadandir bu nifoq?  
Qumursqalar ahli aro  
Zo'r edi-ku ittifoq?

Qumursqavoy dushmanidan  
Uzib olgan oyoqni —  
Tuflab  
Odam tili bilan  
Tushuntirdi nifoqni.

“Asli bizlar  
Bir tan, bir jon,  
Bir uyadan chiqqanmiz.  
Bir cho‘p topsak,  
Ko‘rsak bir don,  
Bir kavakka yiqqanmiz.

Shu paytgacha bir saf bo‘lib,  
Ne ish qilsak teng qildik.  
Bugun bir ish sabab bo‘lib,  
Uch guruhga ayrildik.

Kecha bir gap topdi bizning  
Tungi soqchi — tingchimiz.  
Eshitdigu hammamizning  
Barbod bo‘ldi tinchimiz.  
U tun bo‘yi bedor bo‘lib  
Ko‘kka qarab yuribdi.  
Unda sonsiz don sochilib  
Yotganini ko‘ribdi.  
Qumursqalar bugun tongda  
Eshitib bu xabarni,  
Yo‘lga chiqdik o‘sha onda  
Kechiktirmay safarni.  
Ahd qilganda yor deya baxt,  
Tuproq oshdik,  
Qum oshdik,  
Nihoyat, shu katta daraxt  
Tanasiga tirmashdik.

Maqsadimiz shu narvondan  
Yetmoq edi osmonga...  
Ammo bir yo'l  
Nogahondan  
Bo'lindi uch tomonga.

Bir saf yo'lni o'ngga burdi,  
Boshqa yo'lga boqmadi.  
Bir saf esa chapga yurdi,  
O'ng ularga yoqmadi.

Men tanladim o'rta shoxni,  
Eng to'g'ri yo'l menga shul.  
Ergashtirib ming hamrohni  
Tik osmonga soldim yo'l.  
Ammo qanot qoqdi darg'a,  
G'azab bilan bong urdi.  
O'ngu so'ldan ketganlarga.  
Qayting, deya buyurdi.

So'ng dedi:  
"Biz qumursqalar  
To'g'ri yo'ldan yuramiz.  
Kim shu yo'ldan yurmasa gar,  
Bitta qo'yman qiramiz.  
Burg'u chaldi bizning podshoh,  
Jangga kirdik barobar.  
Shundan daraxt bo'ldi janggoh,  
Mozor bo'ldi sarosar".  
Diqqatimni tortdi shu payt  
Qanotli shoh qumursqa.  
Uchib-qo'nib, u paydar-pay  
Chorlar edi urushga.

Qarab turdim bir nafas tek,  
So'zi qiziq ko'rindi,

Yaqin borsam,  
Temuchindek.  
Ko'zi qisiq ko'rindi.

Uzoq-yaqin tarixlarga  
Meni xayol uchirdi.  
Ko'p dahshatni mitti darg'a  
Xotiramga tushirdi.

Chidolmadim.  
Chertki solib  
Yo'qotdim bu badbaxtni.  
So'ng  
Supurgi, ohak olib  
Oqlab qo'ydim daraxtni.

### NAYNING QISMATI

Nay dastavval navo bo'lib,  
Kirdi dilu o'ylarga.  
Hamma unga shaydo bo'lib,  
Olib ketdi to'ylarga.

To'ylarda u qildi nola,  
El undan zavq simirdi.  
Vaqt o'tib nay —  
Kamtar bola  
O'zni qo'ydi, semirdi.

Bora-bora avvalgidek  
Yonishlari qolmadi.  
Muxlislarning har galgidek  
Olqishlari qolmadi.

Lekin taqdir uni oshno —  
Qilgan edi kuylarga.  
Sur nay nomin oldi,  
Ammo  
Boraverdi to'ylarga.

Tug'ilsa qay uyda go'dak,  
Xabar topib beshikdan,  
Navo chalib, deb muborak,  
Kelaverdi eshikdan.  
Xotin-xalaj chuvvos qilib,  
Bolalar shod zerikmay.  
Goh g'iyqillab,  
Goh bo'g'ilib,  
Kuylayberdi sobiq nay.  
Oxiri u qarib qoldi,  
Bo'g'ildiyu tamog'i,  
Ham ovoz,  
Ham ko'zdan qoldi,  
Bitdi tamom qulog'i.

Lek, baribir,  
Yoshlikdagi  
Iste'dodi uchun ham,  
Halol xizmat,  
Pok yuragi,  
Pok ijodi uchun ham —  
Saqlar uni el nazarda  
Hurmat qilib qo'yadi,  
Kar nay katta sayllarda  
G'at-g'at qilib qo'yadi.

## SO'Z O'YINLARI

Ikkichivoy ikki oldi,  
jilmaydi.  
Ikkinchi yil ikkinchidan  
jilmaydi.

Oq olma yoz tugamasdan tugadi,  
Endi sho'rlik duvarak gul  
tugadi.

Hamma a'zodan burun  
Eshikdan kirar burun.  
Ayo do'stlar, shuning-chun  
Burunning oti burun.

Bizda pashsha g'uj-g'uj,  
talay-talaydur,  
Talay bo'lgach, ne qilardi,  
talaydur.

Cho'k deganda cho'kadigan tuyadir,  
Chunki tuya tuyaligin tuyadir.  
Sen gapimga quloq solib qo'y,  
uka,  
Tuya bo'lma, qo'ylikni ham qo'y,  
uka.

Qora daryo qora bo'lib oqardi,  
Norin bilan qo'shilgach, sal  
oqardi.  
Sirdaryoning mana shunda siri  
bor,  
Tiniqning loyqaga ta'siri bor.

\* \* \*

Aytib bo'ldim so'nggi qo'shiqni,  
Jo'nab ketdi quyosh ham asta.  
Alvon ko'ylak kiygan ufqning  
Etagida qoldi guldasta.

Quchoq ochar farahli bir tun,  
Ko'z oldimda yana bir chaman —  
Xayrli kech —  
Tong bilan, do'stim,  
Yana bir she'r o'qib beraman.

## MUNDARIJA

|                                     |    |
|-------------------------------------|----|
| “Men jilg‘aman” .....               | 3  |
| Armon .....                         | 3  |
| Ona tilim o‘lmaydi .....            | 3  |
| Tog‘ bilan suhbat .....             | 5  |
| Chanoqlarga qo‘ngan yulduzlar ..... | 6  |
| Buloq .....                         | 6  |
| Ona tuproq .....                    | 7  |
| “Kun tog‘ o‘rkachiga...” .....      | 7  |
| Qizaloq .....                       | 8  |
| Chumoli .....                       | 8  |
| Mening yulduzim .....               | 9  |
| Xorazm qovuni .....                 | 10 |
| Oyga .....                          | 11 |
| Otam yo‘lidan .....                 | 12 |
| Sadoqat .....                       | 12 |
| Insoniyat tarixi .....              | 13 |
| So‘ngan yulduzlar .....             | 16 |
| “Bahor...” .....                    | 17 |
| Ukamning “jangi” .....              | 18 |
| Olma .....                          | 18 |
| Yangi yil archasiga .....           | 19 |
| Nutq haqida .....                   | 20 |
| Chevar qiz .....                    | 21 |
| Kunlar sekin o‘tadi .....           | 22 |
| Sharq ertagi .....                  | 23 |
| Oyga uchsak .....                   | 25 |
| Daraxtlar suhbatlari .....          | 26 |
| Bir yolg‘ondan qirq yolg‘on .....   | 29 |
| Shum bola .....                     | 32 |
| Qumursqalar jangi .....             | 33 |
| Nayning qismati .....               | 36 |
| So‘z o‘yinlari .....                | 37 |
| “Aytib bo‘ldim...” .....            | 38 |

**Maktab kutubxonasi**

*Adabiy-badiiy nashr*

**ERKIN VOHIDOV**

**MENING YULDUZIM**

**She'rlar**

*Muharrir Jonibek Subhon  
Musavvir E. Nurmanov  
Badiiy muharrir A. Kiva  
Texnik muharrir T. Smirnova  
Musahhah F. To'ychiyeva*

**IB № 37902**

Bosishga 04.04.2000 da ruxsat etildi. Bichimi 84x1081/32. Tayms garnitura.  
Ofset bosma. 2,10 shartli bosma toboq. 1,8 nashr bosma tobog'i.  
Jami 3000 nusxa / 095-raqamli buyurtma. 3—2000 raqamli shartnoma.  
Bahosi shartnoma asosida.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining  
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,  
700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining 1-bosmaxonasida  
bosildi. 700002, Toshkent, Sag'bon ko'chasi, 1-berk ko'cha, 2-uy.**